XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-95-188-7-94-K/23 Jomboy tumani hokimligi

Samarqand viloyati Jomboy tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining 2023-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23 sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining oltinchi chaqiriq 95- sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining 2023-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23 sonli qaroriga asosan

Jomboy tumani budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 68 011 987,0 ming so‘m, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkagol maxsalutotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha transfertlar 32 044 000,0 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi;

tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1 143 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 594 242,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimligi va tegishli tashkilotlarga:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin;

- soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

- tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari viloyat, shahar va tumanlar Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (S.Boxodirov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Sadullayev)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Q.Sobirov**

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-188-7-94-K/23-son qaroriga
1-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari prognozi

(ming so‘mda)

№	Daromad turi	Miqdori
	JAMI DAROMADLAR	**111,067,400**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	29,408,000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	13,867,000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10,440,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17,430,000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1,420,000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6,450,000
7	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	300,000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3,976,000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8,726,400
10	Aksiz solig‘i, jami	9,270,000
	shu jumladan:	
	-yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	9,270,000
11	Aylanmadan olinadigan soliq	8,640,000
12	Yig‘imlar	1,090,000
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	50,000

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-188-7-94-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jomboy tumani mahalliy Budjetidan 2024-yil uchun hududiy Budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Miqdori
	Xarajatlar jami	**179,079,387**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	25,154,641
2	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	80,910,674
3	Madaniyat boshqarmasi	5,537,359
4	Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi	9,128,823
5	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	3,085,000
6	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	1,621,250
7	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	1,658,874
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	4,333,562
9	Soliq boshqarmasi	5,309,621
10	Hokimiyat	42,339,583